O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNBOYEV JAHONGIR SHODIYOR O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLILI)

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

SOTSIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 301(575.1).

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертatsii доктора философии (PhD) по социологическом наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on sociological sciences

Tursunboyev Jahongir Shodiyor o‘g‘li
O‘zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini takomillashtirish (sotsiologik tahlili) 3

Турсунбоев Жахонгир Шодиёрович
Совершенствование системы подготовки перспективных молодых руководящих кадров в Узбекистане (социологический анализ) 23

Tursunboyev Jahongir Shodiyorovich
Improvement of the System for Developing Promising Young Leadership Personnel in Uzbekistan (Sociological Analysis) 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/2025.27.12.S.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNBOYEV JAHONGIR SHODIYOR O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (SOTSIOLOGIK TAHLILI)

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

SOTSIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/S205 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tagiyeva Gulsum Gafurovna** sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Umarov Abdusalom Adilovich** sotsiologiya fanlari doktori, professor
	Hojiyev Zavqiddin Farxodovich sotsiologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi huzuridagi sotsiologiya fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/2025.27.12.S.01.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Tel.: 0 (371) 232-60-47, faks: 0 (371) 239-17-83, e-mail: info@dba.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi ma’muriy binosi, ____- qavat, _____- xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____- raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 45-uy. Tel.: 0 (371) 232-60-47, faks: 0 (371) 239-17-83, e-mail: info@dba.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi ma’muriy binosi, 11-qavat, _____- xona).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____”_____kuni tarqatildi.
(2026-yil “____”_____ dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

M.B. Bekmurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

Sh.M. Sodiqova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.B. Matibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimi, ularni tanlab olish metodlari, boshqaruv kadrlarni saralab olish, umuman istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini takomillashtirish dolzarb va umumbashariy vazifa sifatida kun tartibiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda markaziy davlat boshqaruvi organlarida faoliyat yuritayotgan davlat xizmatchilarining o‘rtacha 27,1 foizi 55 yosh va undan yuqori yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 18-34 yoshli yosh xizmatchilar ulushi 19,1 foizni tashkil etgan[1]. Bu esa davlat xizmati tizimida yosh rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish va kelajak rahbarlarini tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilmiy markazlari, universitetlarida istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimi yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini samarali amalga oshirishda tarixiy sharoitlarni hisobga olgan holda shakllantirish, istiqbolli boshqaruv kadrlarni saralab olish va tayyorlash bo‘yicha ilg‘or-yetakchi dasturlarni joriy qilish, istiqbolli boshqaruv kadrlarini ochiq tanlov asosida saralab olish, tanlov g‘oliblarida boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirish, maxsus o‘quv dasturi asosida o‘qitish, shuningdek, istiqbolli yosh rahbar kadrlarni mahalliy va xorijiy stajirovkaga yuborishning zamonaviy yondashuvlari, uslublari va sotsiologik nazariyalardan unumli foydalanishni tadqiq etishni ilgari surmoqda.

Mamlakatimizda salohiyatli va istiqbolli rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish hamda Milliy kadrlar zaxirasiga kirishda barcha fuqarolarga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Istiqbolli boshqaruv kadrlarni saralab olish va tayyorlash bo‘yicha “100 nafar ilg‘or yetakchi” Dasturi joriy etildi[2]. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan mazkur Dasturni ishlab chiqish jarayonida ilg‘or va rivojlangan davlatlarda (AQSh, Yevropa davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, BAA, RF) joriy etilgan o‘xshash dasturlar tajribasi o‘rganildi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga ko‘ra, davlat boshqaruvi tizimiga nomzodlarni ochiq tanlov asosida saralab olish, nomzodlarga qo‘yilgan minimal talablar, kasbiy kompetensiyalar asosida o‘qitish, tanlov g‘oliblarini moddiy rag‘batlantirish, pul mukofotlari berish hamda yuqori lavozimlarga tayinlash yoki zaxiraga kirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonga xalqimizning orzu-intilishlarini teran anglaydigan, unga sadoqat bilan xizmat qilishni muqaddas burch, deb biladigan, bilimdon va qat’iyatli rahbarlar zarur”[3]. Davlat xizmatiga yuksak intellektual salohiyat va yangicha tafakkurga ega, mustaqil fikrlovchi, vatanparvar va xalqiga sodiq, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, yuqori malakali

[1] OECD. Government at a Glance 2025. Paris: OECD Publishing, 2025. Chapter 13.2. Age Profile of the Central Administration Workforce. DOI: 10.1787/0efd0bcd-en.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27 sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

[3] Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” — Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021-yil, 244-bet

mutaxassislarni jalb qilishga qaratilgan kadrlar siyosatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimi sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni sotsiologik tahlil qilish, bu borada yosh rahbar kadrlarni tayyorlashga ko‘maklashadigan tizimni yanada takomillashtirish yo‘nalishlarida sotsiologik izlanishlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-sonli Farmoni[4], O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi[5] hamda 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[6] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi PF-21-son Farmoni[7], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktyabrdagi “Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-201-sonli Farmoni[8] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini shakllantirish, boshqaruv samaradorligini ta’minlash, davlat xizmati uchun professional kadrlar tayyorlash va rahbarlik salohiyatini rivojlantirish masalalari ijtimoiy-gumanitar fanlarda, ayniqsa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, davlat boshqaruvi va menejment sohalarida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur muammo ildizlari qadimgi Sharq va G‘arb tafakkuriga borib taqaladi.

Sharq mutafakkirlari asarlarida davlat boshqaruvi, rahbar shaxsi, adolatli jamiyat, ma’naviy barkamollik va ijtimoiy mas’uliyat masalalari keng yoritilgan.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-sonli Farmoni

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

[6] Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 b.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi PF-21-son Farmoni

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktyabrdagi “Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-201-sonli Farmoni

Xususan, Abu Nasr Forobiy[9], Abu Rayhon Beruniy[10], Ibn Sino[11], Alisher Navoiy[12], Yusuf Xos Xojib[13] jamiyat taraqqiyoti rahbarning bilimdonligi, adolatparvarligi va xalq manfaatlariga xizmat qilishi, boshqaruvda adolat va ma'naviy yetuklik ustuvor tamoyil bo'lishi, rahbar xalq dardini anglaydigan, halol va fidoyi inson bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Davlat va jamiyat boshqaruviga oid muhim qarashlar Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida ham o'z ifodasini topgan. Unda davlat boshqaruvida nasl-nasab, tarbiya, intizom, mas'uliyat, nazorat, kadrlar tanlovi va rahbarning shaxsiy namunasi muhim omil sifatida ko'rsatiladi[14]. Amir Temur davlat xizmatchilari va amaldorlarni tanlashda sadoqat, bilim va jasoratga alohida ahamiyat bergan.

G'arb sotsiologik maktablarida rahbarlik, boshqaruv va ijtimoiy institutlar masalalari XIX asrdan boshlab ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. O.Kont[15] sotsiologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirib, jamiyat boshqaruvida ilmiy yondashuv zarurligini, G.Spenserning[16] jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida talqin qilish nazariyasiga ko'ra, istiqbolli kadrlar tayyorlash tizimi davlat boshqaruvining samarali faoliyatini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Maks Veberning byurokratiya nazariyasi davlat boshqaruvi va rahbar kadrlar tizimini o'rganishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Veber ratsional boshqaruv, professional kadrlar va meritokratik tamoyillarni samarali davlat boshqaruvining muhim sharti sifatida baholagan[17]. Emil Dyurkgeym istiqbolli kadrlar tayyorlashda ijtimoiy institutlar va ijtimoiy hamjihatlik nazariyasi orqali davlat boshqaruvining jamiyat barqarorligidagi ahamiyatini asoslab bergan[18]. Talkot Parsons va Robert Merton esa ijtimoiy tizim va institutsional funksiyalar nazariyalari orqali boshqaruv tizimining funksional jihatlarini tadqiq qilganlar[19].

MDH ilmiy maktabida davlat xizmati tizimi, rahbar kadrlar salohiyati, inson kapitali va kadrlar siyosati masalalariga yuqori e'tibor qaratilgan. A.Kirillov[20], V.A.Shamaxov[21] D.A.Butashin[22], A.V.Soroko[23] boshqaruv xodimlarining kasbiy tayyorgarligini, davlat boshqaruvini kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, o'zgartirish va takomillashtirishga, davlat xizmatining kadrlar resurslarini

---

[9] Farobiy. "Fozil odamlar shahri". - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.233.
[10] Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". – Toshkent: Fan, 1968. – B. 71
[11] Ibn Sino. "Axloq haqida risola". - Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – B. 33–37.
[12] A.Navoiy "Mahbub ul-qulub". – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 112–118.
[13] Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig". – Toshkent: Fan, 1971. – B. 54–61.
[14] Amir Temur. "Temur tuzuklari". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1996. – B. 89–95.
[15] Auguste Comte. Course of Positive Philosophy. – New York: Harper Torchbooks, 1974. – P. 21–29.
[16] Herbert Spencer. The Study of Sociology. – London: Henry S.King & Co, 1873. – P. 58–64
[17] Max Weber. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978. – P. 956–1005.
[18] Emile Durkheim. The Division of Labor in Society. – New York: Free Press, 1984. – P. 115–124.
[19] Talcott Parsons. The Social System. – London: Routledge, 1991. – P. 36–45; Robert Merton. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – P. 73–81.
[20] Кириллов А. Подготовка управленческих кадров и безопасность России. Наука. Общество. Оборона (noo-journal.ru). - 2016. - № 4 (9). DOI: 10.24411/2311-1763-2016-00032
[21] Шамахов В.А. Система профессиональной подготовки управленческих кадров как инновационный механизм развития евразийской интеграции. ЕВРАЗИЙСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ: экономика, право, политика. 2015;(2):155-159.
[22] Буташин Д.А. "Совершенствование системы подготовки и развития кадров государственного управления" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.05., 2021.
[23] А.В.Сороко. "Управление кадровым потенциалом государственной гражданской службы на основе формирования резерва управленческих кадров" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.05., 2011.

boshqarish va boshqaruv zaxirasini shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Mamlakatimiz olimlari M.Bekmurodov, A.Umarov, T.Matibayev, A.Xolbekov, Sh.Sodiqova, O.Abduazimov, A.Seitov, B.Farfiyevlarning ilmiy tadqiqotlarida[24] jamoatchilik fikri, konsensus, kompromiss, mentalitet, tafakkur tarzi, ma'rifatli jamiyat, inklyuzivlik, emerjentlik, eskapizim, farosat ilmi, insonning yuksak fazilati asosan uning mustaqil fikrga egaligi, ish faoliyati va yashash tarzi bilan belgilanishi; insonni nafaqat jismoniy va ma'naviy fazilatlari, balki uning turmush tarzi moddiy farovonligi bilan ham bog'liqligi; jamiyat demokratik taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligi xalqimizning fazilatlari, sharqona tafakkuri va turmush tarzidan kelib chiqishi; aholida mutoola madaniyatini oshirish orqali ularning dunyoqarashini o'zgartirish; ijtimoiy adolat; yosh rahbar kadrlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi, boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirilishi, shuningdek, ma'naviy-axloqiy qadriyat hamda milliy an'analarning turmush tarzidagi ijtimoiy mavqei chuqur tahlil qilingan.

Mamlakatimizda davlat xizmati tizimi, rahbar kadrlar salohiyati, inson kapitali va kadrlar siyosati masalalari meritokratiya, institutsionalizm va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda rahbar kadrlarni tanlash va tayyorlashning ochiq tanlov, kompetensiyalarni baholash, strategik liderlik va innovatsion boshqaruv modellariga asoslangan mexanizmlari keng qo'llanilmoqda.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlarida davlat boshqaruvi va kadrlar siyosati masalalari, davlat fuqarolik xizmati tizimini modernizatsiya qilish, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish, yoshlarni davlat boshqaruviga jalb qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar tizimli tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan O'zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimi yetarlicha tadqiq etilmagan hamda zamonaviy yoshlarning referent guruhlari hamda ijtimoiy kapitalining holati, uni takomillashtirish mexanizmlari borasida ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois ushbu dissertatsiya mavzusi zamonaviy ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq SY-01-son "O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

[24] Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B. 52-53.; Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat madaniyat instituti, 2005. – B. 18.; Sodiqova Sh.M. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili. Sotsiologiya fanlari bo'yicha fan doktori diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2016. – B. 18.; Xolbekov A.J. O'zbekistonda jamiyatning demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy adolatni amalga oshirish muammolari (siyosiy-sotsiologik tahlil). – Toshkent: O'RPHDJQA,
2001. – B. 32.; Matibayev T.B. O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish omillari. Sots. f. d. (DSc) diss. – Toshkent: O'zMU, 2017. – B. 172.; Abduazimov O. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta'minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining o'rni. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016. – 352 b.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari.

“istiqbolli yosh rahbar kadrlar” fenomenini tizimli tadqiq etish va sotsiologik kategoriya sifatida tavsiflash;

sotsiologik ilmiy maktablarning istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimiga oid nazariy yondashuvlarini ilmiy asoslash;

istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini rivojlantirishning metodologik asoslarini ochib berish;

O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash bosqichlarini sotsiologik asoslash;

Rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi: jahon tajribasi holatini baholash;

O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash tizimining o‘ziga xosligi bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini tahlil etishda sotsiologik tadqiqotlar metodikasi empirik darajada aniqlash;

yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning ahamiyatini sotsiologik jihatdan ochib berish;

O‘zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini samarali rivojlantirish yo‘llarini nazariy va amaliy jihatdan ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimi.

Tadqiqotning predmeti. Istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini takomillashtirishning mazmun-mohiyati, uning xususiyatlari va mazkur jarayonda vujudga keladigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni olib borishda tizimli, tarixiy, qiyosiy tahlil, anketa so`rovi, ekspert so‘rovi, hujjatlarni tahlil qilish kabi umumilmiy va empirik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Davlat xizmati tizimida istiqbolli yosh rahbar kadrlarni shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi institutsional, ijtimoiy va kompetensiyaviy omillarni o‘zaro bog‘liq holda ifodalovchi sotsiologik integrativ model ishlab chiqilgan;

Meritokratiya tamoyillari va institutsional ishonch o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni sotsiologik tahlil qilish asosida davlat xizmatida kadrlarni saralash va baholash jarayonlarining shaffofligi, adolatliligi va ochiqligini baholashga xizmat qiluvchi empirik indikatorlar tizimi takomillashtirilgan;

Jahonda keng qo‘llaniluvchi “amal qilish orqali o‘rganish + ustozlik + raqamli boshqaruv” integrativ model negizida davlat va jamiyat boshqaruvi o‘rtasidagi nomutanosib harakatlarning tendensiyasi (rahbar kadrlarni tayyorlashning an’anaviy nazariy yondashuvlari zamonaviy davlat boshqaruvi talablariga javob bermasligi) aniqlangan;

Yosh rahbarlarning kasbiy kompetensiyalari sotsiologik jihatdan operatsionallashtirilib, “strategik fikrlash”, “qaror qabul qilish”, “jamoa boshqaruvi”, “muloqot madaniyati”, “emotsional intellekt”, “raqamli ko‘nikmalar”, “inqirozli vaziyatlarni boshqarish” ko‘nikmalarining faoliyat samaradorligini ta’minlashdagi iyerarxik ahamiyati asoslab berilgan;

Rahbar kadrlar tizimini takomillashtirishda istiqbolli yoshlarni aniqlash, baholash va rivojlantirish jarayonlarini integratsiyalovchi, oflayn ekspert kuzatuvi natijalarini raqamli onlayn platformadagi kompetensiya, faollik va monitoring indikatorlari bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan kompleksli boshqaruv modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“istiqbolli yosh rahbar kadrlar” fenomenini tizimli tadqiq etish va sotsiologik kategoriya sifatida tavsiflangan, sotsiologik ilmiy maktablarning istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimiga oid nazariy yondashuvlari aniqlangan;

istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini rivojlantirishning metodologik asoslari ochib berilgan, O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash tizimining o‘ziga xosligi bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash bosqichlari sotsiologik asoslangan, rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi: jahon tajribasi holati baholangan, istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini tahlil etish sotsiologik asoslantirilgan;

yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning ahamiyati sotsiologik jihatdan ochib berilgan, O‘zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini samarali rivojlantirish yo‘llari nazariy va amaliy asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy ish maqsadiga muvofiqligi, ishda foydalanilgan nazariy yondashuvlar tarixiy va rasmiy manbalardan olingani, ishda qo‘llanilgan sotsiologik so‘rov savollarini tuzishda qoidalarga to‘liq rioya qilingani, anketadagi har bir savol nazorat savoli bilan tekshirish ta’minlangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlaniladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar, tadqiqot natijalaridan istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan farmonlar, qarorlarni ishlab chiqishda manba sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan “Ijtimoiy fikr” markazi tadqiqotlarida, oliy ta’limdagi “Sotsiologiya”, “Boshqaruv sotsiologiyasi”, “Yoshlar sotsiologiyasi”, “Ijtimoiy siyosat” va “Ijtimoiy ish” kabi o‘quv fanlariga darslik, o‘quv qo‘llanmalar va uslubiy tavsiyalar tayyorlashda hamda boshqaruvga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. O‘zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlar tizimini takomillashtirish (sotsiologik tahlil) qilish asosida:

Meritokratiya tamoyillari va institutsional ishonch o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni sotsiologik tahlil qilish asosida davlat xizmatida kadrlarni saralash va baholash jarayonlarining shaffofligi, adolatliligi va ochiqligini baholashga xizmat qiluvchi empirik indikatorlar tizimiga oid taklifidan hamda jahonda keng qo‘llaniluvchi “amal qilish orqali o‘rganish + ustozlik + raqamli boshqaruv” integrativ model negizida davlat va jamiyat boshqaruvi o‘rtasidagi nomutanosib

harakatlarning tendensiyasi (rahbar kadrlarni tayyorlashning an’anaviy nazariy yondashuvlari zamonaviy davlat boshqaruvi talablariga javob bermasligi) aniqlanganligiga oid taklifidan O‘zbekiston Mahallalari Uyushmasining strategik dasturlarini ishlab chiqishda foydalanildi (O‘zbekiston Mahallalari Uyushmasining 2026-yil 15-avgustdagi №02-03-19/1499-son dalolatnomasi). Natijada, ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar Yangi O‘zbekiston jamiyati mahallarida ijtimoiy sohaga bo‘lgan e’tibor kuchayishining ma’naviy omillaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot ishida rahbar kadrlar tizimini takomillashtirishda istiqbolli yoshlarni aniqlash, baholash va rivojlantirish jarayonlarini integratsiyalovchi, oflayn ekspert kuzatuvi natijalarini raqamli onlayn platformadagi kompetensiya, faollik va monitoring indikatorlari bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan kompleksli boshqaruv modeli ishlab chiqishga oid takliflardan hamda tadqiqot ishida davlat xizmati tizimida istiqbolli yosh rahbar kadrlarni shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi institutsional, ijtimoiy va kompetensiyaviy omillarni o‘zaro bog‘liq holda ifodalovchi sotsiologik integrativ model ishlab chiqishga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining faoliyatida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2026-yil 15-avgustdagi 4-10-21-5793-sonli dalolatnomasi). Natijada, O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirilishida foydalanilgan.

Yosh rahbarlarning kasbiy kompetensiyalari sotsiologik jihatdan operatsionallashtirilib “strategik fikrlash”, “qaror qabul qilish samaradorligi”, “jamoa boshqaruvi”, “muloqot madaniyati”, “emotsional intellekt”, “raqamli ko‘nikmalar”, “inqirozli vaziyatlarni boshqarish” ko‘nikmalarining faoliyat samaradorligini ta’minlashdagi iyerarxik ahamiyati asoslab berilganligiga oid takliflardan “Ijtimoiy fikr” Respublika Jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan 2026-yilda barcha viloyatlarda “Jamoatchilik fikrini-2024” mavzusida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovda ilk bor eksperimental tarzda foydalanilgan (“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazining 2026-yil 17-avgustdagi 01-16/228- sonli dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta ilmiy-amaliy anjumanlar hamda 2 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (shundan 1 tasi xorijiy jurnalda), ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida 4 ta maqola (shundan 2 tasi xorijda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni, dissertatsiyaning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiya ishining **“Istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimining nazariy - metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sotsiologiya ilmiy maktabi namoyondalari, ular yashab ijod etgan davrlar hamda mazkur ilmiy maktablar tomonidan ilgari surilgan rahbar kadrlar sohasini rivojlantirishga oid nazariyalari ko‘rib chiqildi (1-jadval):

1-jadval.

Rahbar kadrlar sohasini rivojlantirishga oid nazariyalar

T/r	Ilmiy maktablar	Ilmiy maktab namoyondalari	Ilgari surilgan nazariyalar
1.	Sharq sotsiologiya ilmiy maktabi	Al-Buxoriy Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xaldun, Bahouddin Naqshbandiy Alisher Navoiy	Odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘lishi: kishilarning millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o‘rganish, hayotiy tajriba to‘plash jarayonida orttirgan bilim va ko‘nikmalariga katta ahamiyat berishi, o‘zaro yordam, dono boshqaruv, boshliq va xodimning iyerarxik munosabatlarida meyor, farosat, jamiyat rivojlanishida bidava (ibtidoiylik) va xidara (sivilizatsiya) bosqichlari; to‘g‘ri mehnat taqsimoti; inson omilini hisobga olish; mijozning roziligiga asosiy ijtimoiy va ma’naviy o‘lchov sifatida qarash, holatni to‘g‘ri baholay olish; jamoaga foydali bo‘lish ruhida tarbiyalash g‘oyasi; aql va tafakkurning bosh tamoyili sifatida belgilanishi[25].
2.	G‘arb sotsiologiya ilmiy maktabi	O.Kont, E.Dyurkgeym, G.Zimmel, L.Gumplovich, M.Veber, 3.Freyd G.Spenser, A.Marshall, P.Sorokin, T.Parsons,	Jamiyatni ilmiy asosda boshqarish zarurati, ijtimoiy muvozanatga erishish uchun yoshlar ongini ilmiy tafakkurga yo‘naltirish, pozitivizm, ijtimoiy birdamlik konsepsiyasi; mehnat taqsimoti va axloqiy tarbiya orqali yoshlar jamiyatga integratsiyalash, boshqalarga ta’sir ko‘rsatish, boshqalarni ergashtirish san’ati jamoaviylik asosida ijtimoiy institutlarni tashkil qilish[26]. Fakt va hodisalarning umumiy qoidalarini ishlab chiqish; ijtimoiy harakatni ratsionallashtirish; sotsial

[25] Imom Al-Buxoriy “Al-Jom’ al-Sahih” Toshkent: Sharq nashriyoti, 1991, 2. Al-Farobiy (Forobiy) “Al-Madina al-Fadila” (Ideal davlat). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005, 3. Al-Beruniy. “Hindiston haqidagi ilmiy tadqiqot” 1965-yil o‘zbek tilidagi tarjimasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб // Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т. 14. — Тошкент: Фан, 1998. — Б. 12, Ибн Сина. Книга спасения (Китаб ан-Наджат) / Раздел о государстве и политике // Избранные философские произведения. — М.: Наука, 1980. — С. 210–235.

[26] Огюст Конт (1798 – 1857). “Курс позитивной философии” 1830 - 1842 гг., Дюркгейм Э.О разделении общественного труда. Метод социологии. − Москва: 1990; “Правила социологического метода” (1895) Л. Леви-Брюль “Первобытное мышление” Франция, 1910 г.

T/r	Ilmiy maktablar	Ilmiy maktab namoyondalari	Ilgari surilgan nazariyalar
			stratifikatsiya, aholi ijtimoiy qatlamlarini turli maqom guruhlariga bo‘lish mezoniga tayanish[27]. Evolyusiya nazariyasi; integratsiya va differensiatsiya birligi; boshqaruv institutlari tirik organizm kabi o‘sib borishi va rivojlanishi, o‘z vazifalarini bajarishi, inson kapitaliga sarmoya kiritish[28]. Insoniy munosabatlar nazariyasi; sotsial mobillik, istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimini sotsiologik modellashtirish, strategik maqsadlarini belgi–lashda tizimli yondashuv, liberalizm, inson huquqlari[29].
3.	O‘zbekiston milliy sotsiologiya maktabi	M.Bekmurodov, A.Xolbekov, Sh.Sodiqova, B.Farfiyev	Jamoatchilik fikri, mentalitet, ma’rifatli jamiyat, inklyuzivlik, farosat ilmi, insonning yuksak fazilati, jamiyat demokratik taraqqiyotining ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, aholida mutoola madaniyatini oshirish orqali ularning dunyoqarashini o‘zgartirish; ijtimoiy adolat; yosh rahbar kadrlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini amalga oshirilishi[30].

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda yosh liderlikning sotsiologik modelini ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasalarida “Liderlik sotsiologiyasi”, “Boshqaruv sotsiologiyasi” yo‘nalishini joriy etish, yosh rahbarlarning ijtimoiy faolligi, inson kapitali, motivatsiyasi va ijtimoiy maqomi dinamikasini muntazam sotsiologik monitoring qilish taklif etildi. Shuningdek, hududlar kesimida yosh liderlarning ijtimoiy portretini shakllantirish, universitetlar va yoshlar tashkilotlarida liderlik salohiyatini sinovdan o‘tkazuvchi sotsiologik eksperimentlarni amalga oshirish, “Yosh liderlar ijtimoiy forumi”ni muntazam tashkil etish hamda istiqbolli yosh rahbarlar haqida yagona sotsiologik ma’lumotlar bazasini shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlashda zamonaviy ta’lim usullari nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar, tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish[31] hamda o‘zgaruvchan muhitga moslashish kompetensiyalarini

[27] G.Zimmel. Sotsiologiya. Germaniya, 1908 y. L.Gumplovich. Sotsiologiya asoslari. Germaniya, 1884-yil. F.Tennis. Jamoat va jamiyat. Germaniya. 1887-yil. Вебер М. Хозяйство и общество. — М.: ГУ ВШЭ, 2020.

[28] Спенсер Герберт / И. С. Нарский // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. — 3-е изд. — М. : Советская энциклопедия, 1969-1978., Маршалл А. Принципы экономической науки. Пер. с англ. — М., Издательская группа «Прогресс», 1993. — 23 л.


[29] *Pitirim Sorokin*. Modern Historical and Social Philosophies. — New York: Dover Publications, 1963., Мэйо, Элтон : [арх. 15 июня 2024] / Константинов А. В. // Монголы — Наноматериалы [Электронный ресурс]. — 2012. — С. 589. — (Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов ; 2004—2017, т. 21). — ISBN 978-5-85270-355-2., Parsons T. The Social System. — Glencoe: Free Press, 1951

[30] Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B. 52-53.; Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta’minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat madaniyat instituti, 2005. – B. 18.; Sodiqova Sh.M. Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida keksalarni ijtimoiy himoyalashning sotsiologik tahlili. Sotsiologiya fanlari bo‘yicha fan doktori diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2016. – B. 18.; Xolbekov A.J. O‘zbekistonda jamiyatning demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy adolatni amalga oshirish muammolari (siyosiy-sotsiologik tahlil). – Toshkent: O‘RPHDJQA, 2001. – B. 32.; Matibayev T.B. O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotining demokratlashuvi jarayonida ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish omillari. Sots. f. d. (DSc) diss. – Toshkent: O‘zMU, 2017. – B. 172.; Abduazimov O. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta’minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining o‘rni. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016. – 352 b.

[31] D’Alessio F.A. Studying the impact of critical thinking on the academic performance of executive MBA students // Thinking Skills and Creativity, 2019. P. 275-283

shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda STEAM[32] yondashuvi, keys-metod, biznes-simulyatsiyalar, munozaralar, mentorlik va kouching kabi interfaol usullarni qo‘llash[33] muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash tizimining shakllanishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi faoliyati bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Tadqiqotda rahbar kadrlar iyerarxik tuzilmasi, ularga qo‘yiladigan kompetensiyaviy talablar hamda tayyorlash jarayonining asosiy bosqichlari tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Tashkilotning rahbar kadrlar tuzilmasi[34].

Rahbarlarning samarali faoliyati uchun zarur ko‘nikma va malakalarni tizimli rivojlantirish lozim. Shu sababli yosh rahbarlarni tayyorlashda puxta tahlilga asoslangan, rejalashtirilgan dasturlar zarur.

Yosh rahbar kadrlarni individual tayyorlashning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin (2-rasm).

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI
- Individual maqsad va vazifalar, dastur ularga asoslanib tuziladi, - O‘qitish jadvali egiluvchan (ishdan ajralmasdan o‘qish imkoniyati mavjud), - O‘quv rejasi xodim imkoniyatlari va tashkilot ehtiyojlarini hisobga oladi, - O‘qitish qulay sur’atda, qulay vaqtda va qulay joyda o‘tkaziladi,	- Odatda ta’lim xarajatlari yuqori bo‘ladi, - Individual maqsad va vazifalarni hisobga olish uchun asosiy dasturlarga o‘zgartish kiritish zarur, - Raqobatning to‘liq yo‘qligi, xodimlarni motivasiya qilish choralarini ishlab chiqishni talab qiladi, - O‘quv jarayonida hamkasblar o‘rtasida ma’lumot almashish va yordam yo‘q.

2-rasm. Individual tayyorlashning afzalliklari va kamchiliklari[35]

Yosh rahbar kadrlarni guruhli tayyorlashning asosiy afzalliklari va kamchiliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin (3-rasm).

AFZALLIKLARI		KAMCHILIKLARI
- Manfaatlar umumiyligi - tayyorlash jarayonida fikrlar birligi yuzaga keladi, - Uzoq muddatlilik - usullar uzoq vaqt davomida qo‘llanilishi mumkin. - Samaradorlik - 10 holatdan 9 tasida guruhli tayyorlash usullari ancha samarali hisoblanadi.		- E'tiborning tarqoqligi - yosh kadrlarning individual xususiyatlari hisobga olinmaydi. - Chalg‘ituvchi omillar - materialga doimiy ravishda diqqatni jamlash mumkin emas. - Stress - tayyorlov jarayonida yangi muhitni qabul qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi.

3-rasm. Guruhli tayyorlashning afzalliklari va kamchiliklari[36]

[32] *„STEAM Rising: Why we need to put the arts into STEM education education“. Slate. Qaraldi:* 2016-11-10.; Jolly, Anne (18 November 2014). "STEM vs. STEAM: Do the Arts Belong?". *Teacher* (Education Week: Teacher). Qaraldi: 6 September 2016.STEAM ta’limi]


[33] Кузнецова Н.В. К вопросу применения методов активизации творческого мышления обучающихся в процессе профессиональной подготовки управленческих кадров // Современная модель управления: проблемы и перспективы, 2018. С. 113-116.

[34] Muallif tomonidan quyidagi manbalar ma’lumotlari asosida tuzilgan.

[35] Ребрикова Н.В., Тихомирова А.Г. Современные методы обучения руководителей организаций. Лидерство и менеджмент Том 11, Номер 2, Апрель-июнь 2024, ISSN 2410-1664

[36] O‘sha manba

Individual tayyorlash testlar, keyslar, vebinarlar va video darslar orqali shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan ta’limni ta’minlasa, guruhli tayyorlash munozaralar, treninglar, ishbilarmonlik o‘yinlari, “aqliy hujum”, kouching va loyihalar orqali jamoaviy fikrlash, liderlik va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Rahbar kadrlarni tayyorlashning eng samarali usullari sifatida mentorlik, kouching, trening, mikroo‘qitish va “basket” usullarining imkoniyatlari asoslandi (4-rasm).



4-rasm. Yosh rahbar kadrlarni tayyorlash metodlari[37]

Yosh rahbar kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish uchun dasturlarni individual ehtiyoj va kompetensiyalar asosida shakllantirish, individual va guruhli ta’limni uyg‘unlashtirish, STEAMni joriy etish, nazariya va amaliyot nisbatini optimallashtirish hamda monitoring va qayta aloqani yo‘lga qo‘yish taklif etildi. Uzluksiz tayyorlash modelida ehtiyojni baholash, guruhlash, amaliy keyslar, testlar, qayta aloqa va yakuniy baholash bosqichlari qamrab olinadi.

Tadqiqot ishining **“O‘zbekistonda istiqbolli yosh rahbar kadrlar tayyorlash tizimining o‘ziga xos xususiyatlar”** deb nomlagan ikkinchi bobida O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash bosqichlari, shuningdek, rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi bo‘yicha jahon tajribalari ochib berilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng yosh rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi milliy taraqqiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, ijtimoiy institutlarning transformatsiyasi va inson kapitalining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda takomillashib bordi.

Bosqichlar qiyosiy tahlili rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi malaka oshirish modelidan strategik liderlik va zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantiruvchi kompleks tizimga o‘tganini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonda istiqbolli rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi so‘nggi yillarda meritokratiya, kompetensiyaviy yondashuv, ochiqlik, shaffoflik, uzluksiz ta’lim va natijadorlik tamoyillari asosida takomillashib, professional davlat xizmatini shakllantirishning muhim institutsional mexanizmiga aylandi. Mazkur tizimning huquqiy va tashkiliy asoslari “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun hamda 2025-yilda qabul qilingan PF–95, PF–78 va PF–111-sonli hujjatlar bilan yanada mustahkamlandi. Bunda istiqbolli kadrlarni ochiq tanlash, milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, kasbiy kompetensiyalarini baholash va rivojlantirish, rahbarlik lavozimlariga bosqichma-bosqich tayyorlash hamda faoliyatini natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida baholashning zamonaviy mexanizmlari joriy etilmoqda.

[37] Обучение руководителей и управленческого персонала: методы и инструменты https://www.ispring.ru/elearning-insights/obuchenie-rukovoditelej

2-jadval.

O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash bosqichlarining qiyosiy tahlili

Bosqich	Davr	Asosiy yo‘nalishlar	Sotsiologik ahamiyat
Birinchi davr	1991-2000	Malaka oshirish markazlari tashkil etildi hamda kasbiy kompeten–siyalarga o‘tish boshlandi.	Milliy elita shakllandi; jamiyatda mafkura–viy asoslardan funksional kompetensiya–larga o‘tish jarayoni boshlandi.
Ikkinchi davr	2000-2016	Iqtisodiy liberallashuv sharoitida AKT ko‘nikmalari joriy etildi; xalqaro hamkorlik dasturlari kengaydi. Davlat bosh islohotchi tamoyili kuchaytirildi.	Jamiyat bozor iqtisodiyotiga moslashdi; ijtimoiy mobilitet kuchaydi; global boshqaruv texnologiyalarini o‘zlashtirish boshlandi.
Uchinchi davr	2017-2020	Davlat boshqaruvini soddalash–tirish, ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish; KPI va kompetensiya modellari joriy etildi. Demokratik boshqaruvga asos solindi.	Jamiyatda ochiqlik va hisobdorlik madaniyati shakllandi; rahbar kadrlar faoliyati natijaga yo‘naltirildi; ijtimoiy ishonch mustahkamlandi.
To‘rtinchi davr	2021-yildan hozirga qadar	Yoshlar zaxirasi instituti, meritokratiya tamoyillari, modul asosidagi qisqa siklli treninglar, mikromalaka va masofaviy ta’lim formatlari keng joriy etildi. Raqamlashtirish jarayoni boshlandi.	Raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashdi; iqtidorli yoshlar aniqlanib, global kompetensiyalar bilan ta’minlandi; boshqaruv elitasi raqamli kompetensiyalar asosida shakllandi.

Shuningdek, Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Boshqaruv samaradorligi agentligi va “El-yurt umidi” jamg‘armasi hamkorligida qayta tayyorlash, malaka oshirish, xorijiy tajribani o‘zlashtirish va individual kasbiy rivojlanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Hududiy darajada, xususan, Samarqand viloyatidagi “Samarqand kelajak javohirlari” klubi va “Oltin zaxira” kabi tashabbuslar iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni amaliy boshqaruv faoliyatiga jalb etish va istiqbolli rahbarlar zaxirasini shakllantirishning samarali mexanizmlarini namoyon etmoqda. Natijada O‘zbekistonda rahbar kadrlarni tayyorlash tizimi zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, raqamlashtirish, strategik fikrlash va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit kadrlar ekotizimi sifatida shakllanmoqda.

3-jadval.

Istiqbolli yosh rahbar kadrlarni tayyorlash tizimining asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mazmuni	Kutilayotgan natija
Huquqiy-institutsional asos	Davlat fuqarolik xizmati va kadrlar siyosatini tartibga soluvchi qonunlar, Prezident farmonlari va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish	Professional davlat xizmati uchun barqaror huquqiy baza
Kadrlarni saralash	Ochiq tanlov, meritokratiya, kompetensiyalarni baholash va milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish	Salohiyatli va raqobatbardosh rahbar kadrlarni aniqlash
Kasbiy rivojlantirish	Qayta tayyorlash, malaka oshirish, strategik boshqaruv, liderlik, loyiha boshqaruvi va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish	Zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalariga ega rahbarlar korpusini shakllantirish
Yoshlar zaxirasi	“Kelajak liderlari”, “Oltin zaxira”, “Samarqand kelajak javohirlari” kabi dasturlar orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash	Yangi avlod rahbarlarini shakllantirish va ijtimoiy mobilitetni kuchaytirish
Xalqaro tajriba	Xorijiy ta’lim, stajirovka va ilg‘or boshqaruv tajribalarini o‘zlashtirish	Global kompetensiyalarga ega rahbar kadrlarni tayyorlash

Jahon tajribasida meritokratiya, uzluksiz ta’lim, mentorlik, natijaga yo‘naltirilgan baholash, raqamli transformatsiya va “learning by doing” yondashuvlari o‘rganildi. Singapur, Janubiy Koreya, Kanada, BAA va OECD mamlakatlari tajribasi asosida ochiq saralash, rotatsiya, stajirovka, amaliy loyihalar, 360 darajali baholash va ustoz-shogird mexanizmlarini milliy sharoitga moslashtirish taklif etildi.

4-jadval.

Yosh rahbar kadrlarni tayyorlash bo‘yicha xorijiy tajriba

T/r	Mamlakat	Yosh rahbar kadrlarni tayyorlash mexanizmlari	Asosiy afzalliklari	O‘zbekistonda joriy etish imkoniyati
1.	**Birlashgan Arab Amirliklari**	liderlari dasturi, xalqaro universitetlar bilan hamkorlik, stajirovka	Innovatsion liderlik, amaliy tayyorgarlik	Milliy kadrlar zaxirasi, Davlat liderlik dasturlari
2.	**Kanada**	Uzluksiz ta’lim, On-the-job Learning, mentorlik	Amaliy ko‘nikma, ustoz-shogird tizimi, doimiy malaka oshirish	Davlat xizmatchilari uchun xizmat davomida o‘qitish va “ustoz-shogird” tizimini takomillashtirish
